



SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE CREATION OF AHMAD DONISH

Shukhrat Salaydinovich Bozorov

*Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences, Associate Professor
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Enlightenment, Akhmad Donish, “A Brief History of the Manghit Emirs of Bukhara”, history, philosophy, ideas of the Enlightenment, scientific heritage, mature generation.

Received: 16.09.24

Accepted: 18.09.24

Published: 20.09.24

Abstract: The thinker Ahmed Donish, as a famous scientist who devoted his scientific activity to socio-political, educational and aesthetic issues, his contributions to the development of astronomy, medicine, and literary sciences were highlighted in his works. In this sense, we should be determined to deeply study the scientific heritage of Ahmad Donish, continue his scientific heritage and apply it in practice.

This article examines the use of Ahmed Donish's spiritual and moral ideas in the upbringing of the mature generation, the revelation of new aspects of his work, and a philosophical analysis from the point of view of the requirements of the new era.

AHMAD DONISH IJODINI O‘RGANISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Shuxrat Salaydinovich Bozorov

*falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvar, Ahmad Donish, “Buxoro mang‘itlarining qisqacha tarixi”, tarix, falsafa, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ilmiy meros, barkamol avlod.

Annotatsiya: Mutafakkir Ahmad Donish o‘z ilmiy faoliyatini ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy-estetik masalalarga bag‘ishlagan mashhur olim sifatida uning asarlarida astronomiya, tibbiyot, adabiyot fanlarining rivojlanishiga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlangan. Shu ma’nodan, Ahmad Donishning ilmiy merosini chuqur o‘rganish,

uning ilmiy merosini davom ettirish va amaliyotda qo'llashga bel bog'lashimiz lozim.

Ushbu maqolada Ahmad Donishning ma'naviy-axloqiy g'oyalari bilan barkamol avlodni tarbiyalashda foydalanish, ijodining yangi qirralarini ochish, yangi davr talabi va nuqtai nazaridan falsafiy tahlil qilingan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АХМАДА ДОНИША

Шухрат Салайдинович Бозоров

Доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Просвещение, Ахмад Дониш, «Краткая история мангитских эмиров Бухары», история, философия, идеи Просвещения, научное наследие, зрелое поколение.

Аннотация: Мыслитель Ахмед Дониш, как известный ученый, посвятивший свою научную деятельность общественно-политическим, образовательным и эстетическим вопросам, в своих трудах подчеркнул свой вклад в развитие астрономии, медицины, литературных наук. В этом смысле мы должны быть полны решимости глубоко изучить научное наследие Ахмеда Дониша, продолжить его научное наследие и применить его на практике.

В данной статье рассматривается использование духовно-нравственных идей Ахмеда Дониша в воспитании зрелого поколения, раскрытие новых сторон его творчества, философский анализ с точки зрения требований новой эпохи.

KIRISH

Ma'rifatparvar mutafakkir Ahmad Donish ilmiy merosini o'rganishning bugungi kundagi falsafiy ahamiyati shundaki, mutafakkir ta'lim tizimi va siyosiy boshqaruvdagi qoloqlik holatlarini o'z vaqtida ko'rib tahlil qila olganligida va mamlakatni tanazzuldan qutqaruvchi ilg'or progressiv g'oyalarni ishlab chiqa olganligidadir. Bugungi davrning ko'plab zamonaviy tadqiqotlarida, Ahmad Donishning ta'limoti XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari yoki XIX asrning 40-60 yillardagi rus ma'rifatparvarlari ilgari surgan g'oyalar bilan o'xshash ekanligi e'tirof etiladi. Jumladan, Tojikistonlik olim Rasul Xodizoda: "Shubhasiz Donish XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari va XIX asrning 40-60 yillarda rus ma'rifatparvar yozuvchilarining ijodi bilan tanish bo'lmagan"[1;219], degan fikrlarni ilgari suradi. Biroq, biz tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, Ahmad Donish mashhur rus sharqshunos olimlari hamda P.I.Pashino, V.Grigoryev,

Kozimbek Obiddinov kabi Rossiya imperiyasining ko'zga ko'ringan davlat arboblari bilan do'stona aloqada va munosabatda bo'lgan.

XIX asrning 80-yillarda Donishning ijodi va uning islohotchilik g'oyalari amirlikdagi barcha ma'rifatparvarlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Donish ijodining ashaddiy muxlisi Sharifjon Maxdum bo'lib, Donish amir saroyidan quvilgan va uning asarlarini o'qish taqiqlab qo'yilgan vaqtda u "Nodir voqyealar"ning qo'lyozmasini qo'lga kiritadi va uni qayta yozish uchun yosh shoir Munzimga berdi. Qayta yozilgandan keyin bu asarni 1899 yilda Sadri Ziyo Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayni va Hayratga nusxalarini haqiqiysi bilan solishtirishni topshirdi.

ASOSIY QISM

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Tadqiqotchi-olimlaridan Ye.E.Bertels, I. Mo'minov Z.Rajabov, A.Mirzoyev, Mirza-Axmedova, Ibrohim Haqqul. M. Shakuri, A. Hamroyev, A. Shokirov, I.Subxonlar tomonidan tomonidan ma'rifatparvar-jadidlarning ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq etish bilan birga Ahmad Donishning ma'rifatparvarlik faoliyatini o'rganish, ilmiy merosini targ'ib qilish, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish borasida salmoqli tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mustaqillik tufayli yurtimizda ma'rifatparvar allomalarning ma'naviy merosini o'rganish, ularni o'zlashtirish, yangi davr sivilizasiyasi uchun yangicha ilmiy-nazariy uslub sifatida foydalanish orqali yosh avlodni barkamol bo'lib ulg'ayishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Dissertasiyada tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan holda Ahmad Donish ma'naviy merosining hozirgi zamon uchun ahamiyati, uning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rniga oid ilmiy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bugungi kunga kelib, mutafakkirning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish jarayonida yosh avlodni barkamol shaxs bo'lib, shakllanishi uchun kerakli bo'lgan tafsialarni o'chratishimiz mumkin.

Ahmad Donishning zamondoshi Ho'ja Azim Shar'iy "Nodir voqyealar" deb nomlangan buyuk asarida Ahmad Donish etika, falsafa, huquq kabi fanlarning rivojiga katta hissa qo'shdi. O'tkir mantiqiy mushohadasi bilan o'zining yuksak aqliy salohiyatini, olimlik va yozuvchilik mahoratiii namoyon etadi. Asarning inson taqdiri va inson huquqlari haqidagi bo'limlarida Payg'ambar hadislari va oyatlaridan ustalik bilan foydalanib, shariat peshvolari da'vo qilayotgan mavhum tushunchalarnipg jamiyat va xalqqa zararini ochib beradi [2;10], deb yozadi. Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoye" asarning ahamiyati xususida tojikistonlik olim Shamsiddin

Shohin esa, “Navodir”ni o‘qib, ko‘hna dunyo donoligining mohiyatini angladim va haqiqat unda ekanligiga aniq ishonдим. Unda bayon etilgan fikrlar bebaho gavhar kabidir” [3;14], deb qayd etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy sharoitida Ahmad Donishning ma’rifatparvarlik g‘oyalari aholining ilm-ma’rifatli qatlamini jo’shqinlashtirishda va barcha ma’rifatparvarlarni birlashtirishga xizmat qilgan. Tojikistonlik tadqiqotchi G‘afurov Bobojon “Ahmad Donishning eng buyuk xizmatlaridan biri uning XIX asrda yashagan barcha ma’rifatparvarlarini o‘z atrofiga birlashtirganligida edi” [4;28], deya baholaydi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarining eng yaxshi ma’rifatparvarlari va yozuvchilari jumladan, Qori Rahmatullohi Vozeh, Iso Mahmudi Buxoroiy, Abdulqodirxojai Savdo, Shamsiddin Maxdumi Shoxin, Mirzo Hayiti Sahbo, Muhammadsiddiq Hayrat kabi allomalari Ahmad Donishning izdoshlari va hamfikrlari hisoblanganlar.

Tojikistonlik professor Zarif Sharipovich Radjabov “Ahmad Donish Sharifjon Maxdumi (Sadri Ziy) hovlisida to‘plangan shoirlar to‘garagining doimiy ishtirokchisi va rahbari”[5;100] bo‘lganligini e‘tirof etadi. Shuningdek, Sadriddin Ayniy yoshligida shoirlar bahsida bir necha marotaba Ahmad Donishni uchratganligini ko‘rsatib o‘tadi. Sadriddin Ayniyning ta’kidlashicha, Markaziy Osiyoda jadidchilikning o‘tmishdoshi buyuk ma’rifatparvar Ahmad Donish bo‘lib, u eski usuldagi maktabning o‘qitish tizimiga norozilik bildirib, tarix, falsafa, astronomiya, hatto matematika va geometriya fanlarini mustaqil ravishda o‘rgangan [6;30-31].

Mutafakkir ma’naviy merosining bir-birini takrorlanmas mundariyasi va hozirgi davr zamonaviy yoshlar tarbiyasiga ta’siri shundaki, u asarlarida O‘rta Osiyo tarixi qolaversa, o‘zbek urug‘larining hayoti va tarixiga oid ma’lumotlar, sayyoralar harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etgan. Bundan tashqari inson va jamiyat, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni falsafiy tadqiq etib, bir necha ilmiy-nazariy yutuqlarga ham erishgan. Bundan tashqari Ahmad Donish o‘zining ma’naviy-ruhiy kechinmalari asosida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bildirgan munosabati va tarixiy-falsafiy qarashlari, uni falsafiy nuqtai nazardan idealistik jamiyat tarafdori sifatida namoyon qiladi. Chunki, Donish Buxoro amirligidagi ma’rifatparvarlik harakatining asoschisi, jadidlarning ma’naviy rahnamosi sifatida shuhrat qozonib, uning siyosiy qarashlarida qonun chiqaruvchi oliy davlat organini tashkil etish masalalari ko‘tarilgan edi. Zero, mutafakkirlar va ma’rifatparvarlar orasida birinchilardan bo‘lib Ahmad Donish “Dorul-mashvara” ya’ni, “Majlislar uyi”ni tuzish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan edi [7;412]. Bu hozirgi davr zamonaviy taraqqiyotdagi parlamentar tizim g‘oyasi bo‘lib, Donish tafakkurining teranligini bildiradi.

Bugungi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, Ahmad Donish nafaqat Sadri Ziy to‘garagining rahbari balki butun Buxoro amirligi ma’rifatparvarlarining, Turkiston o‘lkasi

kurtak yozayotgan jadid ma'rifatparvarlarining rahnamosi va yo'lboshchisi bo'lgan. Keyinchalik barcha shakllangan adabiy va badiiy to'garaklar ham Donishning ilg'or qarashlari natijasida faoliyat olib borgan. Aynan shuning uchun ham Sadridin Ayniy har doim madrasa oldida uchratgan Ahmad Donishga "Buxoroning zulmat osmonidagi yorqin yulduz" deya baho bergan [8;20].

Hozirgi davrning falsafiy tadqiqotlari sharhida Ahmad Donish jadid bo'lgan yoki bo'lmaganligi to'g'risidagi bahs mavzular ham ilgari surilmoqda. Aynan ushbu dolzarb masala borasida ko'plab tadqiqotchilar turli xil fikrlarni bildirishga ham ulgurganlar. Ahmad Donishning asarlari bilan tanishgan rus sharqshunosi akademik Ye.E.Bertelsning "Ahmad Donish jadid adabiyotining otasi va boshlovchisi bo'lgan"[9;9-28], deb ta'kidlagan e'tirofini hisobga olsak ushbu mavzuning bahsli jihati qolmaydi.

Ko'plab tadqiqotlarda Sadridin Ayniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishida Ahmad Donishning katta ta'siri borligi e'tirof etiladi. Bu tom ma'noda ayni haqiqat bo'lib, Sadridin Ayniy Ahmad Donishni o'zining ma'naviy ustozini deb ham hisoblagan.

Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul mutafakkir Ahmad Donish to'g'risida yoza turib, "Donish umrida ta'ma ilinjida birovni maqtab, birovning oldida egilib-bukilmagan, shaxsiy foydasinigina ko'zlab haqgo'ylik, tanqidbozlik ham qilmagan. U har bir so'z va har bir ishdan haqiqat axtarib yashagan. Uning so'z va fikrlari doimo asosli, teran, qilichdek keskir bo'lgan"[10] deb e'tirof etgan.

Ahmad Donish ijodini o'rganishda biz astranomiya oid ma'lumotlarni ham ko'rishimiz mumkin bo'lib, mutafakkir astranomiya oid fikrlarida tabiat hodisalariga ilmiy jihatdan yondashadi. Ayniy o'zining "Esdaliklari"da quyidagicha yozadi: "Ular (ya'ni Sharifxo'ja Mahdumnikida yig'ilishga to'planganlar) qadimgi Yunon falsafasi haqida "Olam yaratilganmi yoki u abadiymi" mavzusida suhbat olib borishgan". Uning "Navodir ul-vaqoye" asarining katta qismi olamning yaratilishi borasida diniy falsafada bayon etilgan kosmografik masalalarga bag'ishlangan, lekin asosiy qismi alloma yashagan zamonga mosdir [11;30]. Astranomiya bag'ishlangan asarlarida u ilmiy asosga ega tabiat hodisalarini bayon etadi. Uning yozishicha: "Bizning tadqiqot va taxminlarimiz Yunon allomalari fikrlariga mos keladi. Barcha allomalar yer yumaloq va u boshqa samoviy jismlar kabi xech narsaga tayanmasdan va xech narsaga tegmasdan turishini tasdiqlaydilar" [12;103].

Ahmad Donishning tabiat, fazo, sayyoralar borasidagi ilmiy tadqiqotlari rivojida sayyohatlar muhim rol o'ynadi. Sayyohatlarining birida rus dvoryanlaridan biri M.Stremouxov Ahmad Donishga ikki globus sovg'a qilgan. Bu sovg'alarni olgan Donish ta'sirlanib, uyidagi misralarni fors tilida yozgan:

Axli karam ba axli xunar simu zar dixand,

U gird kardu dod ba man ilmi kunfayakun.

Ya'ne na darxuri tu buvad nakdi mulku mol,

Guy zamin ba dasti tu bodovu osmon.

Uning mazmuni quyidagicha:

“Boy odamlar odatda hunarmandlarga ularning mehnati uchun oltin beradi, sen esa o‘z biliming va fan uchun Osmon va Yerni qo‘lga kiritding”. Shuningdek, quyidagi misra ham mavjud: “Donish Buxoroga o‘z yelkasiga butun Olamni ortgan holda piyoda qaytdi”[13;53] deb e’tirof etiladi.

XULOSA

Ushbu maqola orqali Ahmad Donish asarlarini tahlil qilish asnosida shunday xulosaga keldikki, mutafakkirning ilg‘or fikrlarida mang‘itlarning butun siyosiy tuzumini isloh qilish loyihasi, Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy qoloqligini va saroydagi tartibsizliklarni tanqid qilishi, Buxoro aholisini Rossiya ilm-fani bilan tanishtirishi, rus madaniyatiga ijobiy munosabat hamda xotin-qizlar muammosi, Buxoro xalqlarini dunyoviy bilimlarga, ma’rifatga, huquqiy savodxonlikka o‘rgatish, mamlakatni obodonlashtirish borasidagi amir Muzaffar va amir Abdulahad oldiga qo‘yilgan vazifalar kabi o‘z zamonasining dolzarb muammolari ko‘tarilgan bo‘lsada hal qilinmasdan qolgan. Lekin, Ahmad Donish qarashlari keyinchalik jadidchilik harakatining ilg‘or vakillari bo‘lgan Somiy, Mirzo Siroj, Munzim yoki alloma Sadridin Ayniy kabi olimlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Chunki, ushbu allomalarning ijtimoiy hayot masalalari aks ettirilgan ilmiy asarlari Ahmad Donishning ilg‘or g‘oyalariga tayanib bunyod etilganligini ko‘rsatadi.

Ahmad Donish asarlaring barkamol avlod tarbiyasiga ta’siri shundaki, uning ijodida tarixiy jarayonlarning falsafiy tahlili, voqeya va hodisalarning falsafiy-mantiqiy mushohadasi teran, zamonga hamnafas yoritilganligidadir. Shuning uchun ham Buxoroda jadidchilik harakati vujudga kelishi ham Donish yaratgan buyuk maktab tufaylidir. Mutafakkir Sadridin Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida, “Buxorodagi dastlabki maorifparvarlik va jadidchilik g‘oyalari Ahmad Donishdan boshlangan”[14;86] deb e’tirof etgani ham shundan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахмади Дониш. Порчахо аз «Наводирул вақоеъ» (Отрывки из «Редкостных событий»), Бо тахрир, тавзеҳот ва сухани хотимавии Расул Ходизода. - Сталинобод, 1957. - с.219.
2. Хади-заде Р. Ахмад Дониш - писатель и просветитель. - Душанбе: Дониш, 1976. - с.10.
3. Муҳаммаси Шохин. Муатариб бар ғазали Шохин дар маҳди Аҳмади Дониш ба

тариқи ихтисор. – Тоҷикистон, 1960. - №12. – С.14.

4. Гафуров Бобожон. Тоҷикон (Таджики). Китоби дуум. - Душанбе: Ирфон, 1985. – с.28.

5. Раджабов З. Маорифпарвар Ахмади Дониш (Просветитель Ахмад Дониш). - Душанбе: Ирфон, 1964. – с.100.

6. Мирза-Ахмедова П., Рашидова Д.А. К изучению джадидского движения // Общественные науки в Ўзбекистане, 1990, № 7. – С. 30-31.

7. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое (Нодир воқеалар). / И. М. Мўминов таҳрири остида. (Форс-тоҷикчадан А. Ҳамроев ва А. Шокиров таржимаси). - Тошкент: Фан, 1964. – Б. 412.

8. Айнӣ С.Таърихи инқилоби Бухоро(История Бухарской революции).- Душанбе: Адиб, 1987. -с.20.

9. Бертельс Е.Э. Рукописи произведений Ахмада Каллэ //Труды Тадж. базы АН СССР. 1936. Т.3. –с.9-28.

10. Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла. Эссе. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-haqqul-ahmad-kalla-esse.html>

11. Айнӣ С. Краткая биография. Т.: Издательский дом государственной литературы УзССР, 1960. –с.30.

12. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое (Нодир воқеалар). / И. М. Мўминов таҳрири остида. (Форс-тоҷикчадан А. Ҳамроев ва А. Шокиров таржимаси). - Тошкент: Фан, 1964. – С.103.

13. Субҳон И. Семь звёзд Бухары. - Самарканд, 1991. –с.53.

14. Айнӣ С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар.1-том. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1963. – Б.86.

15. Turayevich U. R., Qahramonovich H. N. ZAMONAVIY DUNYONING AXLOQIY MUAMMOLARI-ZO ‘RAVONLIK FALSAFASI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 57. – №. 4. – С. 422-425.

16. Qahramonovich H. N. Zamonaviy Markaziy Osiyo Falsafasinini Ikki Dahosi //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 6-9.